



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRINING BUYRUG'I

2024 yil “24- dekabr”

№ 396

Toshkent sh.

### **Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy, Samarqand, Xorazm, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarining birlamchi tibbiy-sanitariya muassasalarida “Elektron retsept” (reimbursatsiya) dasturini joriy etish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi PQ-162-son va 2024-yil 5-sentabrdagi PQ-311-son qarorlariga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy, Samarqand, Xorazm, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida “Elektron retsept” (reimbursatsiya) (*keyingi o'rinnarda – dastur*) joriy etish maqsadida, **buyuraman**:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-noyabrdagi PQ-4890-son, 2023-yil 24-maydagi PQ-162-son, 2023-yil 11-sentabrdagi PQ-300-son qarorlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2024-yil 12-martdagi 14-436-sonli topshirig'i bilan tasdiqlangan reja-jadvaliga asosan, Sirdaryo viloyati va Toshkent shahrida “Elektron retsept” (reimbursatsiya) dasturi joriy qilinganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. “Elektron retsept” (reimbursatsiya) dasturini:

hududlardagi barcha birlamchi tibbiy-sanitariya muassasalariga dasturni joriy etish tarmoq jadvali 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin;

kasalliklarni ambulator sharoitda davolash uchun ishlatalidigan va dasturga kiritilgan dori vositalari ro'yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi sog'lijni saqlash vaziri (M.Qurbanov) hamda Navoiy, Samarqand, Xorazm, Buxoro va Qashqadaryo viloyat sog'lijni saqlash boshqarmalari boshliqlari:

**uch kun muddat ichida** dastur joriy etiladigan muassasa rahbari, tibbiyot muassasalarda dasturga mas'ul shaxsni buyruq bilan belgilasin va o'rnatilgan tartibda Yagona integrator – “Uzinfocom” MChJga dasturdan foydalanish uchun ruxsat olish bo'yicha murojaat qilsin;

dasturning ishslash jarayoni bo'yicha doimiy monitoring olib borilishini va dasturdan foydalanishni muvofiqlashtirilishini ta'minlasin.

4. Tibbiy yordamni tashkillashtirish departamenti (U.Gaziyeva) Yagona integrator – "Uzinfocom" MChJ bilan birgalikda shifokor tomonidan elektron retseptlarning rasmiylashtirilishi, buyurilgan dori vositalarining asosliligi bo'yicha nazorat o'rnatgan holda, har chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 5-sanasiga qadar dasturni joriy qilinishi hamda amalga oshirilishi yuzasidan tahliliy hisobot va ma'lumotlarni rahbariyatga kiritib borilishini ta'minlasin.

5. Tibbiy sug'urta boshqarmasi (Sh.Almardanov) Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi (Z.Ermatov) "Elektron retsept" (reimbursatsiya) dasturida ishtirok etish istagini bildirgan dorixonalar bilan ular tomonidan beriladigan dori vositalarining sarf-xarajatlarini qoplash bo'yicha o'rnatilgan tartibda shartnomalar tuzish choralarini ko'rsin.

6. Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi (Z.Ermatov), Yagona integrator – "Uzinfocom" MChJ bilan birgalikda dastur joriy etilgan hududlardagi birlamchi tibbiy-sanitariya muassasalari shifokorlari va Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi bilan shartnomaga tuzgan dorixonalarining mas'ul xodimlariga dasturdan foydalanish bo'yicha amaliy seminarlar tashkil etilishini ta'minlasin.

7. Raqamli texnologiyalarni joriy etish va muvofiqlashtirish boshqarmasi (N.Eshnazarov), Yagona integrator – "Uzinfocom" MChJ bilan birgalikda dasturni ko'rsatilgan hududlarda joriy qilishda yuzaga keladigan tashkiliy masalalarni hal etish hamda texnik nosozliklarni bartaraf etish va dasturni uzlusiz ishslashini ta'minlash choralarini ko'rsin.

8. Sog'lijni saqlash vazirligining 2024-yil 4-oktabrdagi 310-sonli buyrug'i 1-bandining ikkinchi xatboshisi va ushbu buyruqning ilovasi bekor qilinsin.

9. Mazkur buyruq ijrosi nazoratini vazir o'rinosarlari D.Sultanov, O.Omonov va F.Sharipov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



A. Xudayarov

Sog'liqni saqlash vazirining  
2024-yil 24 dekabrdagi  
396-son buyrug'iga  
1-ilova

**Hududlarda “Elektron retsept” (reimbursatsiya) dasturini joriy etish  
“TARMOQ JADVALI”**

T/r	Hududlar	Amalga oshirish muddati		
		2025-yil		
		Yanvar	Fevral	Mart
1.	Qoraqalpog'siston Respublikasi			
2.	Navoiy viloyati			
3.	Samarqand viloyati			
4.	Buxoro viloyati			
5.	Xorazm viloyati			
6.	Qashqadaryo viloyati			

Sog'lijni saqlash vazirining  
2024-yil "24" dekabrdagi  
396 - sonbuyrug'iga  
2-ilova

## Kasalliklarni ambulator sharoitida davolash uchun ishlataladigan va (reimbursatsiya) dasturiga kiritilgan dori vositalari ro'yxati

T/r	Xalqaro patentlanmagan nomi	Dori shakli
<b>I. Me'da-ichak tizimi patologiyalarini davolash uchun qo'llaniladigan vositalar</b>		
<i>Proton nasos inhibitorlari</i>		
1	Omeprazol	kapsula 10 mg, 20 mg, 40 mg
<b>II. Periferik adrenergik jarayonlarga ta'sir qiluvchi vositalar</b>		
<i>Astmaga qarshi va o'pka surunkali obstruktiv kasalligida qo'llaniladigan vositalar</i>		
2	Salbutamol	aerozol 100 mkg/doza 7 gr 200 doza; aerozol 100 mkg/200 doz
<b>III. Endokrin tizimi patologiyalarini davolash uchun qo'llaniladigan vositalar</b>		
<i>Yod preparatlari</i>		
3	Kaliy yodid	tabletka 200 mkg
<i>Antitireoid vositalar</i>		
4	Tiamazol	tabletka 5 mg
<i>Qalqonsimon bez gormonlari</i>		
5	Levotiroksin natriy	tabletka 100 mkg
<i>Qandsiz diabetga qarshi vositalar</i>		
6	Desmopressin	burun tomchisi 100 mkg/ml 5 ml
		burunga sepish uchun dozalangan sprey 10mkg/doza 5ml
<i>Balg'am ko'chiruvchi vositalar</i>		
7	Ambroksol	tabletka 30 mg
<b>IV. Yurak-qon tomir tizimiga ta'sir etuvchi dori vositalari</b>		
<i>Antiaritmik vositalar</i>		
8	Verapamil	tabletka 80 mg
<i>Antianginal vositalar</i>		
9	Izosorbid dinitrat	sprey 1,25 mkg/doza 15 ml 300 doza
		tabletka 10 mg
10	Izosorbid mononitrat	tabletka 20 mg; 40 mg
		kapsula 20 mg; 40 mg
<i>Antiagregantlar</i>		
11	Asetilsalitsil kislotasi	tabletka 50 mg; 75 mg; 100 mg; 150 mg
12	Klopидогрел	tabletka 75 mg
<i>Selektiv (kardioselektiv) <math>\beta</math>1-adrenoblokatorlar</i>		
13	Bisoprolol	tabletka 2,5 mg; 5 mg; 10 mg
<i>Kalsiy kanallari blokatorlari</i>		
14	Amlodipin	tabletka 5 mg; 10 mg
<i>Angiotenzinغا айлантирувчи фермент ингибиторлари</i>		
15	Enalapril maleat	tabletka 5 mg; 10 mg
<i>Gipolipidemik vositalar</i>		
16	Atorvastatin	tabletka 10 mg; 20 mg; 40 mg; 80 mg
<i>Trombotsitlar aggregatsiyasi va qon ivishiga ta'sir qiladigan vositalar</i>		
17	Varfarin	tabletka 2,5 mg; 3 mg; 5 mg
<i>Diuretik va antidiuretik vositalar</i>		
18	Spironolakton	tabletka 25 mg; 50 mg; 100 mg

<b>19</b>	Furasemid	tabletka 40 mg
<b>VII. Endokrin tizimi patologiyalarini davolash uchun qo'llaniladigan vositalar</b>		
<i>Diabetga qarshi vositalar</i>		
<b>20</b>	Gliklazid	tabletka 30 mg; 60 mg
<b>21</b>	Metformin	tabletka 500 mg; 850 mg; 1000 mg
<b>22</b>	Empagliflozin	tabletka 10 mg; 25 mg
<b>Zaharlanish va intoksikatsiyalarda qo'llaniladigan vositalar</b>		
<i>Buyrak ustı bezi po'stloq qismi gormonlari, glyukokortikoidlar</i>		
<b>23</b>	Prednizolon	tabletka 5 mg
<b>Vitaminlar va ularning hosilalari</b>		
<i>Vitaminlar</i>		
<b>24</b>	Folat kislotasi	tabletka 1 mg; 5 mg
<b>Eritropoezni stimullovchi vositalar</b>		
<b>25</b>	Temir Fe (II) birikmalari	tabletka 100 mg kapsula 100 mg
<b>26</b>	Temir Fe (III) birikmalari	tabletka 100 mg kapsula 100 mg
<b>Gijjalarga qarshi vositalar</b>		
<b>27</b>	Albendazol	tabletka suspenziya